OLIY TA’LIM TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DOLZARBLIGI

Kamolov Mag‘rur Ruziqulovich
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
kamolovmagrur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola innovatsion pedagogik texnologiyalar ularni ta’lim tizimiga joriy etilishi, mohiyati, xususiyatlari va boshqalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim,texnologiya, mohiyat, global, tizim, pedagog

Annotation: This article provides information on innovative pedagogical technologies, their introduction into the educational system, their essence, features, etc**.**

Key words: education, technology, essence, global, system, pedagogue.

XXI – asr boshiga kelib butun dunyoda glaballashuv jarayoni shu qadar kuchayib ketadiki, u jarayonning o‘ziga xos ijobiy tamonlari bilan birga – bir qator jihatlari ham nomoyon bo‘la boshladi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlab, xalqimizni tub manfaatlaridan kelib chiqib, dekmakratik taraqqiyot yo‘lini izchillik bilan amalga oshirishda o‘zining strategik vazifalarini belgilab oldi.

Hozirgi davrning asosiy talabi – mustahkam va chuqur bilimga, mustaqil fikrga, kuchli irodaga, go‘yaviy immunitedga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash.

Glaballashuv davrida bilimlilik mamlakatni iqtisodiy rivojlanish va uning milliy boyligini ko‘paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bugungi kunda faqat yuksak bilimli zamonaviy mustaqil intellektual rivojlangan va ommaviy kasb – hunarga ega yoshlargina mamlakatning buyuk kelajagini ta’minlashi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, unda innovatsion texnologiyalardanfoydalanish dolzarb masalaga aylandi.

Ta’lim jarayoniga pedogogik texnologiyalarni qo‘llanishi nafaqat o‘qituvchi kasbiy mahoratini o‘sishiga pedagogik faoliyatda zarur bo‘lgan axborot manbani izlashga, izohlashga pedagogik muammolar yechimini topishiga balki, pedagogik vaziyatlarning barcha nozik tomonlarini tushunish, izohlash, tahlil – talqin eta olishga ijobiy ta’sir etadi. Innovatsion taxnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishni asosiy omili hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kun o‘qituvchisi bilimli, atroflicha fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o‘z ustida tinimsiz ishalydigan, izlanuvchan, ijodkor, ta’lim jarayoniga yangiliklarni olib kiradigan bo‘lishi kerak. Demak, o‘qituvchining innovatsion ta’lim texnologiyalarini mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixoligik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik nuqtai nazardan yondashmoq lozim. Ta’lim samaradorligini oshirishga doir ilmiy – nazariy, amaliy qarashlar, innovatsion ta’lim metod va usullariga doir ilmiy – nazariy, amaliy yondashuvga ega bo‘lish qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun juda zarurdir.

Natija: ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, ta’limni sifat va samaradorligini oshirishda hamda o‘quvchi – yoshlarni intellektual salohiyatini yuksaltirishda katta ahamiyatga egadir.

Ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar mohiyati va uning o‘ziga hos xususiyatlari. Innovatsiya – yangilik kiritish, tizim ichki tuzulishini o‘zgartirish deb tariflanadi.

Ta’limni innovatsion texnologiyalar asosida olib borish, bu pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni hal qiluvchi o‘zgartirishlarga olib kelishini bildiradi. Shuningdek, bu orqali ta’lim jarayonida qo‘yilgan ta’lim maqsadlari natijasiga erishish va ko‘rsatilgan vaqt mobaynida ijobiy natijani olish mumkin bo‘ladi.

Pedagogik jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish orqali uning bir qator xususiyatlari va qulayliklari kuzatiladi:

- ta’lim jarayonini oldindan loyihalash imkoniyatini ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida ta’lim oluvchi shaxsning o‘qish – bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va ta’lim oluvchining bilimlarini o‘zlashtirish sifatini obyektiv baholash;
- ta’lim jarayoni tuzilishi va mazminini yaxlitligi, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sirida bo‘lishi;
- ta’lim shakllarini qulaylashtirish;
- ta’lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatini o‘zaro ta’sirini hisobga olish;
- ta’lim maqsadlarini ko‘zlangan etalon asosida talabalarda kuzatiladigan harakatlarni oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o‘qitish;
- o‘zlashtirish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlavchi baholar;
- belgilanga me’zonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta’limning rajalashtirilgan natijaga erishishini kafolatlanganligi;
- ta’lim samaradorligini yuqoriligi.

Bu keltirilgan xususiyatlar va qulayliklar o‘z navbatida innovatsion ta’limning an’anviy ta’limdan farqlovchi jihatlarini namoyon etadi. Ya’ni innovatsion ta’limda bir qator yangicha yondashuvlar namoyon bo‘ladi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan, ta’limga asoslanganlik: Ta’lim oluvchi shaxsi ta’lim jarayonini markaziy figurasiga aylanadi. Munosabatlarning insonparvarligi va demakratlashuvi o‘ishga majburlashdan voz kechish amalga oshadi.

2. O‘qishga differenlashgan yondashuv: ta’lim oluvchining umuman intellektual rivojlanishi doirasini va uni predmetini, mavzuni o‘zlashtirishini, uning qobiliyatlari va sifatlarini hisobga olish.

3. O‘qish faoliyati – bilimlarni mustaqil egallash va ta’lim oluvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni qo‘llash: bu xususiyat bo‘yicha muammoli – izlanuvchan ijodiy ahamiyat kasb etadi.

4. Ta’lim va tarbiyaning bir butunligi shaxs madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirish yuzaga keladi.

5. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi ta’limning teng huquqli subyektiga aylanadi, mustaqil ravishda bilish faoliyatni olib boradi.

6. Ta’limni an’anaviy vositalari bilanbirgalikda A.K.T.dan foydalanish orqali bilimlarni yanada mustahkamlash amalga oshadi.

7. Darsni tashkil etish dialog, munozara, hamkorlik va o‘zaro ta’limga asoslangan jamoaviy va guruhlar shaklida faoliyat turlarini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali, an’anaviy ta’limdan farqli ravishda shaxsning faolligiga, intellektual rivojlanishiga mustaqil o‘quv faoliyatiga qaratiladi, mohiyatan bir qator vazifalar bajariladi: o‘zaro hamkorlik va ijodkorlikda bo‘lish:

✓ o‘qituvchi bilimni yetkazuvchi emas, talabani mustaqil bilim olishida yordamchi, maslahatchi,tashkilotchi raxbar hisoblanadi;

✓ o‘qituvchi ta’lim jarayonini algoritmlash, loyihalash, atroflicha fikrlash sharoitida ish yuritadi;

✓ o‘quv jarayoni talaba – o‘qituvchilarni o‘zaro faol ish yuritishga o‘rganishiga odatlantiradi;

✓ talaba o‘zini – o‘zi o‘qitish, faollikda yakka, katta – kichik guruhlarda ishlashga o‘rgatish;

✓ o‘quv jarayonini induviduallashtirishni talab etadi. Shu holatlarda o‘quv mazmuni va DTS talablarini to‘la o‘zlashtirish kafolatlanadi;

✓ talaba ta’lim jarayonini sifat va samaradorligini ta’minlashda harakatlantiruvchi kuchga aylanadi;

✓ ta’lim oluvchilar kelajakda yetuk mutaxasis bo‘lib yetishlari uchun zamin yaratiladi;

✓ pedagog mehnati yengillashib, dars samaradorligi yanada oshadi.

Buning uchun nima qilish kerak?

➢ o‘quv – tarbiyaviy jarayonda ta’lim oluvchining motivatsiyasini oshirish;

➢ darsda o‘quv materiallarini hajmini oshirish, mazmunini real hayot bilan bog‘lash;

➢ o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish;

➢ ta’lim-tarbiya jarayonida talim oluvchining shaxsiy ishtiroki, faolligi va mas’uliyatini yanada oshirish eng muhim darajaga chiqadi.

Yuqorigdagi fikrlarni amalga oshirish ko‘zlangan maqsadga erishishnini kafolatlaydi.

Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning mohiyati. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, uni yuridik jihatdan kafolatlash, mazmunan jaxon talablari darjasiga ko‘tarish, zamonaviy bilim egasi bo‘lgan kadrlar tayyorlash borasida qonunlar, dasturlar qabul qilindi va amaliy jarayonga tadbiq etib borilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda demokratik fuqorolik jamiyatini tashkil etishda shaxs, jamiyat, oila, Vatan oldidagi burchi, mas’uliyatni chuqur xis qilgan holda erkin va mustaqil fikrlovchi inson tarbiyasi, demokratik munosabatlarni shakllantirish ta’lim tizimini asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda ta’lim jarayonini yangicha loyihalashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etish, erkin shaxs tafakkurini shakllantirish asosiy omillaridan biridir.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan talablardan biri ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida, muayyan

nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ular tomonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baxolash har bir o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy o‘qituvchi talabalarni fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatini shakllantirishi va albatta, ilg‘or pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi zarur bo‘ladi.

Innovatsion pedagogik texnalogiyani qo‘llash dars samaradorligini oshirishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsni didaktik vazifasidan kelib chiqiladi. Bu esa maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar qo‘llanilganda o‘qituvchi talabalarni butun dars jarayonida faol ishtirok etishlariga sharoit yaratadi. Darsni boshidan oxirigacha talabalar ta’lim markazidan bo‘ladi, bunday yondashuvning foydali jihatlari quyidagilardan namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish va o‘rganish;
- ta’lim oluvchi yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- o‘rganilgan bilimni e’tiborga olinishi;
- ta’lim oluvchini tashabbuskorligi va mas’uliyatini qo‘llab quvvatlanishi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va uning samaradorligini ta’minlash o‘quvchini shaxs sifatida shakllanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda shuni aytish mumkunki, ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llanilishi, muayyan shart – sharoitlarni mavjudligi asosida ta’minlanadi hamda ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Innovatsion faoliyat – bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi.

Innovatsion pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish – o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasini o‘sishiga, dunyoqarashini shakllanishiga, mustaqil fikrlashiga, muammoli vaziyatlardan chiqishni o‘rganishga, jamoa bilan ishlashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga, o‘quvchilarni ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Sh.M.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.- “O‘zbekiston”-2017y.

3. Sh.M.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlarini birgalikda barpo etamiz. T.-“O‘zbekiston” NMIU, 2017y.

4. I.A.Karimov, Ona yurtimizning baxt iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida harakat qilish – eng oliy saodatdir. T.-“O‘zbekiston” 2015y 268-bet.

5. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza matni.T.-Adolat.2018y 569-bet.

6. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent:Iste’dod, 2008. -180 b.

7. Абдуллина О.А. Обшепедагогическая подготовка учителя в системе висшего педагогического образования: Для пед. спетс. висших учеб. заведений. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Просвешение, 1990.

8. Abduraimova G.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Texnologiya” fanini o‘qitishga tayyorlash yo‘llari va vositalari. // Pedagogika. – Toshkent, 2019. – №1. – B. 20 – 28.